



**O‘YIN, QO‘SHIQ VA SHE‘RLAR ORQALI MAKTABGACHA  
YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILI TALAFFUZINI RIVOJLANTIRISH.**

**Isfandiyorova Aziza Akramovna**

*SamDChTI talabasi*

*Ilmiy rahbar: Hamrayev Sardor Akmaljon o‘g‘li*

*SamDChTI o‘qituvchisi*


**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili talaffuzini rivojlantirishda o‘yin, qo‘shiq va ritmik she‘rlarning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘yin asosidagi ta‘lim metodlari, bolalar psixologik xususiyatlari hamda qo‘shiq va ritmik mashg‘ulotlar orqali fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, mashhur ingliz bolalar qo‘shiqlari, talaffuz o‘yinlari va she‘rlar misollar orqali tahlil qilinib, ularning metodik samaradorligi ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalariga ko‘ra, o‘yinli faoliyatlar bolalarning nutq faolligini oshiradi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi va ingliz tilini o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘yinli ta‘lim, talaffuz, ingliz tili, ritmik o‘yinlar, maktabgacha ta‘lim, fonetik ko‘nikma, bolalar qo‘shiqlari.*

### **Kirish**

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini erta yoshdan o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar til o‘rganishda juda yuqori qobiliyatga ega bo‘lib, ular yangi tovushlarni tez qabul qiladi. Shu sababli talaffuzni to‘g‘ri shakllantirish til o‘qitish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda til o‘rganish jarayonida nutq va talaffuzni rivojlantirish masalasi o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ham keng o‘rganilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va talaffuzni rivojlantirish masalasi o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ham keng o‘rganilgan. Jumladan, N. Mahmudov talaffuzni shakllantirishda fonetik mashqlarning ahamiyatini ta‘kidlab, shunday yozadi: “Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasi muntazam fonetik mashqlar orqali shakllanadi va rivojlanadi”<sup>10</sup> Shuning uchun maktabgacha ta‘limda o‘yin, qo‘shiq va she‘rlar orqali talaffuzni o‘rgatish samarali metod hisoblanadi.

<sup>10</sup>Mahmudov N. O‘zbek tilining fonetikasi. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 240 b.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Qo‘shiq orqali talaffuzni rivojlantirish: “Head, Shoulders, Knees and Toes”



Mashhur bolalar qo‘shig‘i Head, Shoulders, Knees and Toes tana a‘zolarini o‘rganishga yordam beradi. Qo‘shiq 1912-yildan beri bolalarga til o‘rgatishda qo‘llanib kelmoqda.

Qo‘shiqdan parcha

Head, shoulders, knees and toes,  
Knees and toes, knees and toes,  
Head, shoulders, knees and toes,  
Eyes and ears and mouth and nose.

Metodik tushuntirish: Bu qo‘shiq orqali bolalar: tana a‘zolari nomlarini o‘rganadi, /h/, /n/, /z/ tovushlarini mashq qiladi va bu ularni ingliz tilida talaffuz qilish ko‘nikmasini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, harakat orqali so‘zlarni tez va oson eslab qoladi. Bolalar qo‘shiq aytayotganda tana a‘zolarini ko‘rsatadi. Bu usul Total Physical Response metodiga asoslanadi.

O‘yin orqali talaffuzni rivojlantirish : Echo Game (Takrorlash o‘yini)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Bu o'yinda o'qituvchi so'z aytadi, bolalar esa uni aks-sado kabi takrorlaydi.

Misol: Teacher: Hello! Children: Hello! Teacher: Good morning! Children: Good morning! Metodik tushuntirish: Bu o'yin: eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, talaffuzni to'g'ri shakllantiradi va so'zlarni takrorlash orqali mustahkamlaydi.

Shuningdek, N. Mahmudov bolalar nutqini rivojlantirishda fonetik mashqlar va takrorlashning o'rnini haqida shunday deydi: "Talaffuzni shakllantirishda eshitish va takrorlashga asoslangan mashqlar muhim vosita hisoblanadi". Bu esa maqolada keltirilgan "Echo Game" kabi o'yinlarning metodik ahamiyatini asoslab beradi."<sup>11</sup>.

She'rlar orqali talaffuzni rivojlantirish: bu ham samarali metodlardan biridir.

Misol uchun quydagi qo'shiq orqali tahlil qilsak : "Rain, Rain, Go Away" she'ri: Rain, rain, go away,

Come again another day,

Little children want to play.

Rain, rain, go away.

<sup>11</sup> Mahmudov N. *O'zbek tilining fonetikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 240 bet.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

Tushuntirish: Bu she'r orqali bolalar: /r/ tovushini to'g'ri talaffuz qiladi, ritmik nutqni rivojlantiradi va yangi so'zlarni eslab qoladi. Bu yosh bolarni diqqatini jamlashga va darsni qiziqarli tashkil etishda ham muhim hisoblanadi. Yana tilshunos olim M. Yo'ldoshev esa bolalar til o'rganishida ritm va ohangning rolini ta'kidlab: "She'r va qo'shiqlar orqali berilgan material bolalar tomonidan oson qabul qilinadi va uzoq muddat esda saqlanadi", deb yozadi. Bu fikr qo'shiq va she'rlarning talaffuzni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.<sup>12</sup>

Quydagi jadval orqali, o'yin, qo'shiq va she'rlarning ta'limiy ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Jadval: O'yin, qo'shiq va she'rlarning ta'limiy ahamiyati.


Faoliyat turi	Misol	Natija
Qo'shiq	Head Shoulders Knees and Toes	tana a'zolari va ritmni oshirishda muhim.
O'yin	Echo Game	talaffuz va eshitish rivojlantiradi
She'r	Rain Rain Go Away	fonetik ko'nikma o'zlashtirishga yordam beradi.
Harakatli o'yin	Simon Says	buyruq gaplar, va topshiriqlarni bajarishga yordam beradi.

Xulosa, O'yin, qo'shiq va ritmik she'rlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili talaffuzini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bunday metodlar bolalarning nafaqat, darsga qiziqishini oshiradi, balki nutq faoliyatini faollashtiradi va yangi tovushlarni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda o'yin va ritmik faoliyatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mahmudov N. O'zbek tilining fonetikasi. – T.: O'qituvchi, 2006. – 240 b.
2. Yo'ldoshev M. Bolalar nutqini rivojlantirish asoslari. – T.: Fan, 2010. – 180 b.
3. Qodirov R. Pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2012. – 150 b.
4. Xudoyberganova D. Nutq madaniyati va bolalar nutqini rivojlantirish. – T.: Fan, 2015. – 200 b.
5. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 220 b.
6. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007. – 288 p.
7. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 256 p.
8. Wright A. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 224 p.

<sup>12</sup> Yo'ldoshev M. Bolalar nutqini rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 180 bet.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

9. Brewster J. The Primary English Teacher's Guide. – London: Penguin, 2010. – 176 p.
10. Moon J. Children Learning English. – Oxford: Macmillan, 2005. – 160 p.

